



THE IMPORTANCE OF THE PRINCIPLE OF PROPORTIONALITY IN THE APPLICATION OF PROCEDURAL COERCIVE MEASURES IN CRIMINAL PROCEEDINGS

Shukhratjon Shavkatjonovich Kurbonov

Independent researcher of the Academy of Justice

Judge of the Namangan Regional Criminal Court

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Principle of proportionality, procedural coercive measures, criminal proceedings, human rights, fair trial, lawyer participation, judicial control, prosecutorial control, legality, transparency.

Received: 24.11.25

Accepted: 25.11.25

Published: 26.11.25

Abstract: The following article analyzes the role of the principle of proportionality in the application of procedural coercive measures in criminal proceedings. It examines the essence of this principle, its expression in law, its application in practice, and the problems in this regard. It also discusses ways to protect human rights, increase the efficiency of investigations, and ensure a fair trial by ensuring the principle of proportionality.

MUTANOSIBLIK PRINSIPINING JINOYAT ISHLARI YUZASIDAN PROTSESSUAL MAJBURLOV CHORALARINI QO'LLASHDAGI AHAMIYATI

Shuxratjon Shavkatjonovich Qurbonov

Odil sudlov akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Namangan viloyat sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudiyasi

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Mutanosiblik prinsipi, protsessual majburlov choralari, jinoyat protsessi, inson huquqlari, adolatli sudlov, advokat ishtiroki, sud nazorati, prokuror nazorati, qonuniylik, shaffoflik.

Annotatsiya: Quyidagi maqola jinoyat protsessida protsessual majburlov choralari qo'llashda mutanosiblik prinsipining o'rnini tahlil qiladi. Unda mazkur prinsipning mohiyati, qonunchilikdagi ifodasi, amaliyotdagi qo'llanilishi va bu boradagi muammolar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, mutanosiblik prinsipini ta'minlash orqali inson huquqlarini himoya qilish, tergov samaradorligini oshirish va adolatli sudlovni ta'minlash yo'llari muhokama qilinadi.

ЗНАЧЕНИЕ ПРИНЦИПА ПРОПОРЦИОНАЛЬНОСТИ ПРИ ПРИМЕНЕНИИ МЕР ПРОЦЕССУАЛЬНОГО ПРИНУЖДЕНИЯ В УГОЛОВНОМ СУДОПРОИЗВОДСТВЕ

Шухратжон Шавкатжонович Курбонов

Самостоятельный исследователь Академии правосудия

Судья по уголовным делам Наманганского областного суда

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Принцип	Аннотация:	В данной статье
пропорциональности, процессуального принуждения, уголовно судопроизводство, права человека, справедливое судебное разбирательство, участие адвоката, судебный контроль, прокурорский контроль, законность, прозрачность.	меры уголовного человека, судопроизводство, права человека, справедливое судебное разбирательство, участие адвоката, судебный контроль, прокурорский контроль, законность, прозрачность.	анализируется роль принципа пропорциональности при применении мер процессуального принуждения в уголовном судопроизводстве. Рассматриваются сущность данного принципа, его юридическое выражение, применение на практике и возникающие в этой связи проблемы. Также рассматриваются способы защиты прав человека, повышения эффективности расследования и обеспечения справедливого судебного разбирательства посредством реализации принципа пропорциональности.	роль принципа пропорциональности при применении мер процессуального принуждения в судопроизводстве. Рассматриваются сущность данного принципа, его юридическое выражение, применение на практике и возникающие в этой связи проблемы. Также рассматриваются способы защиты прав человека, повышения эффективности расследования и обеспечения справедливого судебного разбирательства посредством реализации принципа пропорциональности.

Kirish. Jinoyat protsessida majburlov choralarining ahamiyati, huquqiy tizimda fuqarolarning erkinliklarini himoya qilish va adolatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Majburlov chorasi — bu tergov, sud yoki boshqa huquqiy organlar tomonidan jinoyat ishlarini olib borishda, shuningdek, ayblanuvchilarni ishdan bo'shatish yoki jazolashda qo'llaniladigan majburiy tadbirlar to'plamidir. Ular jinoiy faoliyatni to'xtatish, qonunlarni hurmat qilishni ta'minlash va jinoyatchilikni kamaytirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Mavzuning dolzarbligi: Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar inson huquqlarini ta'minlash, shaffoflikni oshirish va adolatli sudlovni amalga oshirishga qaratilgan. So'nggi yillarda qabul qilingan qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar protsessual majburlov choralarini qo'llash tartibini takomillashtirishga, ularning qo'llanilishi ustidan sud nazoratini kuchaytirishga va advokatning rolini oshirishga qaratilgan.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – jinoyat ishlarida protsessual majburlov choralarini qo'llashda mutanosiblik prinsipining nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish, ushbu prinsipni ta'minlashning asosiy yo'nalishlarini aniqlash va qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Maqolada quyidagi masalalarni yechish ko'zda tutilgan:

- Mutanosiblik prinsipining mohiyatini ochib berish, uning asosiy elementlarini aniqlash va boshqa huquqiy prinsiplardan farqini ko'rsatish.

- Protsessual majburlov choralari qo'llashda mutanosiblik prinsipining buzilishi sabablarini aniqlash, bu borada huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari va sudlarning rolini baholash.

Jinoyat protsessida majburlov choralari qo'llash uchun bir qator shartlar mavjud. Agar jinoyat protsessi ishtirokchisi tergov yoki sud harakatlariga to'sqinlik qilayotgan, o'zining yuklatilgan majburiyatlarini bajarmayotgan yoki kelgusi jinoiy faoliyatining oldini olish zarur bo'lsa, protsessual majburlov chorasi qo'llaniladi.

Asosiy qism. Protsessual majburlov choralarining qo'llanilishi faqat qonunda belgilangan hollarda va asoslarga tayangan holda amalga oshirilishi kerak. Shaxslarning huquqlari va erkinliklari, ayniqsa, hech qanday asosli sabablar bilan cheklanmasligi zarur. Agar majburlov choralari asos bo'lgan holatlar qonun doirasida bo'lmasa, ularning qo'llanilishi noqonuniy hisoblanadi. Bu holatlarning boshqacha bo'lishi, jinoyat ishi bo'yicha ayblovning qo'zg'atilganligini va bu ishga aloqador shaxslarning majburlov choralari jalb etilganligini tasdiqlovchi hujjatlar orqali amalga oshiriladi. Bu orqali barcha protsessual harakatlarning qonuniy va asosiligi ta'minlanadi. Protsessual majburlov choralari qo'llanilayotgan shaxslarning asosiy huquqlari saqlanishi kerak. Ushlab turilgan yoki qamoqda saqlanayotgan shaxslarning huquqlari, jumladan, himoyachisi bilan uchrashish, shikoyat va iltimosnoma yozish kabi huquqlar to'liq himoya qilinishi kerak. Bu tartiblar ham qonuniy va adolatli bo'lishi lozim¹. Ushlab turish, qamoqqa olish yoki tibbiy muassasaga joylashtirish kabi protsessual majburlov choralari qo'llanganida, shaxsning oila a'zolariga yoki yaqin qarindoshlariga bu haqda darhol xabar berilishi shart. Bu shaxsning huquqlarini himoya qilish va uning holati haqida oila yoki yaqinlarining xabardor bo'lishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi.

Material va metodlar. Maqolada olib borilgan tadqiqotning mazmuni jinoyat protsessining sudga qadar ish yurituv bosqichida advokatlarning o'zaro tortishuv tamoyilini qo'llashdagi o'rnini kuchaytirishning ayrim masalalarini aniqlashdan iborat. Maqolaning metodologik asosi jinoyat protsessining sudga qadar ish yurituv bosqichida taraflarning tortishuvchanlik prinsipini ta'minlash va mazkur jarayonda himoyachi ishtirokini takomillashtirish sohasida obyektiv voqelikni bilishning umumiy falsafiy va xususiy huquqiy usullari hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotda protsessual majburlov choralari qo'llashda mutanosiblik prinsipini ta'minlashning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish maqsadida turli xil usullar va metodologik yondashuvlar qo'llanildi. Tadqiqotning mazmuni, qo'llanilgan metodlar va tadqiqot obyektlari quyida batafsil bayon etilgan.

Tadqiqot quyidagi asosiy bosqichlardan iborat bo'ldi:

1. Nazariy tahlil bosqichi:

– O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi, Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro huquqning inson huquqlari sohasidagi hujjatlari tahlil qilindi.

– O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining amaliyoti, shuningdek, xorijiy davlatlarning sud amaliyoti o‘rganildi.

Empirik tadqiqot bosqichi:

So‘rov o‘tkazish: Huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari (tergovchilar, prokurorlar), sud xodimlari (sudyalar, sud xodimlari) va advokatlar o‘rtasida so‘rov o‘tkazildi. So‘rovning maqsadi protsessual majburlov choralari qo‘llashda mutanosiblik prinsipining amaliyotdagi qo‘llanilishi, mavjud muammolar va ularni hal etish yo‘llari haqida ma’lumot to‘plashdan iborat edi.

Hujjatlarni tahlil qilish: Jinoyat ishlari bo‘yicha sud qarorlari, tergov hujjatlari va boshqa materiallar tahlil qilindi. Tahlilning maqsadi protsessual majburlov choralari qo‘llashda mutanosiblik prinsipining buzilishi holatlarini aniqlash va ularning sabablarini o‘rganishdan iborat edi.

Jinoyat protsessi davomida tergov va sud organlari tomonidan qo‘llaniladigan protsessual majburlov choralari (qamoqqa olish, garov, uy qamog‘i va h.k.) inson huquqlari va erkinliklariga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, ushbu choralarni qo‘llashda mutanosiblik prinsipiga rioya etish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari tahlili. O‘zbekiston Respublikasida sud-huquq islohotlari doirasida inson huquqlarini ta’minlashga qaratilgan bir qator qonunlar qabul qilingan. Biroq, amaliyotda protsessual majburlov choralari qo‘llashda mutanosiblik prinsipiga rioya etish bo‘yicha muammolar mavjud.

Ushbu tadqiqot natijalari jinoyat protsessida inson huquqlarini himoya qilish, tergovning samaradorligini ta’minlash va adolatli sudlovni amalga oshirishga qaratilgan islohotlarni yanada chuqurlashtirishga xizmat qilishi mumkin. Tadqiqotda keltirilgan takliflar va tavsiyalar qonun ijodkorlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, sudlar, advokatlar va huquqshunolar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Tadqiqot natijalarini umumiy tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki:

1. Mutanosiblik prinsipi protsessual majburlov choralari qo‘llashda inson huquqlarini himoya qilishning muhim kafolati hisoblanadi.

2. Amaliyotda protsessual majburlov choralari qo‘llashda mutanosiblik prinsipining buzilishi holatlari uchrab turibdi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, protsessual majburlov choralarini qo'llashda mutanosiblik prinsipiga rioya etish inson huquqlarini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Xulosa. Protsessual majburlov choralarini qo'llashda mutanosiblik prinsipiga rioya etish adolatli sudlovni ta'minlash va inson huquqlarini himoya qilishning muhim kafolatidir. Ushbu prinsipni ta'minlash uchun davlat organlari, huquqshunoslar va jamoatchilik birgalikda harakat qilishlari zarur.

Zamonaviy konstitutsiyaviy-huquqiy doktrina demokratiya, inson huquqlari va qonun ustuvorligi tushunchalariga asoslanadi. Ularni amalga oshirishning zaruriy sharti va usuli sifatida mutanosiblik prinsipi alohida ahamiyat kasb etadi.

Mutanosiblik prinsipi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 20-modda 4-qismi bilan belgilangan bo'lib, "Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerak"ligini ta'kidlaydi.

Shu bois, bugungi kunda mutanosiblik prinsipi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan ularga berilgan vakolatlarni munosib tarzda amalga oshirishning asosiy mezon sifatida e'tirof etilib, shaxslarning huquqlarini cheklaydigan choralar haddan tashqari bo'lmasligi va ularni qo'llanilayotgan maqsadlarga mos kelishini talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Глазер, Ю. Руководство по уголовному процессу (сочинение). - Т. 1. - СПб.: Типография Правительствующего Сената, 1884. - 381 с. т
2. Сергеевский Н.Д. Русское уголовное право. Пособие к лекциям. Часть Общая. СПб., 1911.
3. Фойницкий И.Я. Курс уголовного судопроизводства. СПб., 1996. Т. 2. 5.
4. Чориева Д.М. Ишни судга кадар юритишда ҳимоячи ҳуқуқларини кенгайтириш масалалари., ю.ф.ф.д.,(PhD) диссер. – т.2021. – б. 47
5. Тўлаганова Г.З. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси ва тортишув принципи. Ўқув қўлланма. – Т. ТДЮИ, 2009., -Б. 6-7, 60, 78.
6. Базарова Д.Б. Адвокат как участник в досудебных стадиях уголовного процесса. Дисс. ... канд. юрид. наук. –Т., ТГЮИ. 2011. -С. 20.
7. Курохтин Ю.А. Принцип состязательности судопроизводства: конституционно-правовой аспект. М.: РАП, 2009. С. 47.